

Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

N: 40
(66477)

2004 yil
4 oktabr - 10 oktabr

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

Sherzod Hamroyev -
1989 yilda Buxoro
viloyati, Buxoro
tumanida tug'ilgan.
Gala-Osiyo
shahridagi 1-o'rt
maktabning 8-sinf
o'quvchisi.
Maktablararo
o'tkazilgan «Siz
huquqingizni



sardorlar bellashuvi
ko'nglimizdagidek o'tdi.
-Hozirgi kunda
bolalar u yoqda tursin,
hatto kattalar ham o'z
huquqlarini yaxshi
bilmasliklari bizga
ma'lum. Siz o'z
huquqingizni
to'liq bilishingizga
ishonchingiz komilmi?

yashashlariga to'sqinlik qiladigan
asosiy omil ham urushdir.
-Mutolaaga munosabatingiz?
-Badiiy kitoblarni, gazeta va
jurnallarni o'qib turaman.
-She'rlar yod olganmisiz?
-Ko'p emas. Mening Fotima va
Zuhra ismli ajoyib, a'lochi
singilchalarim bor. Fotima viloyat
miqyosidagi o'quv olimpiadasida
kitobxonlik bo'yicha 1-o'rin

*Yaxshilik, ezigulik, poklik, sadoqat.
Ka'ba ham go'yoki huzuringizda,
Hayot tonglarida kulgan saodat.*

*Ko'ngil koshonasi to'lar yog'duga,
Bu oqshom bulbulning yoqimli so'zi.
Lahzalari go'zaldir, to'la tuyg'u
Umr daftarining oltin qog'oz.*

'yulduzi»ga obuna bo'lgan edik.
Yilning 2-yarmi uchun obuna
bo'lishga ulgurmadik.
-Buning sababi moddiy
ehtiyojlarga borib
taqalmaydimi?
-Shunday desa ham bo'ladi.
Ayni vaqtda sinfdoshlarimiz
bilan dalaga paxta terishga
chiqaymiz. Paxta terimidan
so'ng tergan paxtalarimiz uchun
pul olamiz.

HAYOT TONGLARIDA KULGAY SAODAT

bilasizmi?» ko'rik-tanloving
tuman bosqichida 1-o'rinni
egallagan.

-Sherzod, suhbatimizni
boshlashdan avval sizni
g'oliblikni qo'lga
kiritganingiz
bilan
tabriklaymiz. Bilishimizcha,
ushbu tanlovda guruhingiz
a'zolari bilimdonligi bilan
boshqa guruh
ishtirokchilaridan ustun
kelgan. Bu borada guruh
sardorining, ya'ni o'zingizning
o'rningizni qanday
baholaysiz?

-Savolingiz meni ozgina
o'ylantirib qo'ydi. Chunki o'zim
guruh sardori bo'lib, o'zimni
maqtashga qiynalib qolsam
kerak. Bu albatta hazil. Tanlovda
guruhimiz bilan «bir yoqadan
bosh chiqarib» muvaffaqiyatga
erishdik. Tanishuv, erkin mavzu,

huquqlari haqidagi Konvensiya"
kitobidagi 40 ta moddani
barchasi bilan tanishib
chiqqanman. Ushbu Konvensiya
dunyoning k o' p
mamlakatlari

Yurt vorislari

tomonidan qabul qilingan.
Aksariyat yoshlarning o'z
huquqlarini bilmasliklari achinarli
hol, albatta. O'quvchilarga maktab
davridan boshlab o'z haq-
huquqlari haqida ma'lumot berilib
borilsa yaxshi bo'lar edi.

-Ushbu Konvensiya qabul
qilinmagan davlatlarni ham
bilasizmi?

-Arabistonda va Livanda
qabul qilinmaganidan xabarim
bor. Bunga asosiy sabab, u yerda
bo'layotgan to'xtovsiz urushlar
bo'lsa kerak, deb o'ylayman.
Bunday urushlar bolalarga salbiy
ta'sir qiladi. Ularning maktabga
borib o'qishlari, tinch

Butun dunyo bolalari individual va global
rivojlanish deganda huquqning o'zi nima, ularning
qanday huquqlari bor, huquqlari paymol
qilinayotganlarga hayrixoh bo'lish lozimligini hamda
o'zining va boshqalarning huquqlarini himoya
qilishga kuch topa olish lozimligini tushunishlari
kerak. Asosiy ehtiyojlari va huquqlari qo'pol
ravishda buzilgan bolalar hech qachon
boshqalarning huquqlarini hurmat qila olmaydilar.
Huquqning buzilishi faqat shaxsning azob-
uqubatlanishini yuzaga keltirishga sabab bo'libgina
qolmay, balki ularning ongida siyosiy beqarorlik
urug'larini ekilishiga va qurolli nizolarga sabab
bo'lmoqda. Huquq muammolari har bir insonga
to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita tegishlidir.
"Noyob huquqlar" kitobidan.

sohibasi bo'ldi. Fotima yozgan bir
she'r yodimda edi. Shuni aytib
beraman:

Bu oqshom taralar dil nuringizda,

-Qanday gazeta yoki
jurnallarga obuna bo'lgansiz?

-2004 yilning 1-yarmida
sinfimiz bilan birgalikda «Tong

Shu pulga gazetaga obuna
bo'lmoqchimiz.

-O'quvchilarga paxta
terish majburiymi?

-Yo'q, majburiy emas. Paxta
- milliy boyligimiz. O'zimizni
mehnatdan olib qochsak,
hademay yomg'irli kunlar ham
boshlanib qoladi. Terilmagan
paxtalar esa sovuqda qolib ketadi.
Bu hol mamlakatimiz
iqtisodiyotiga salbiy ta'sir qiladi.
Shulami anglab yetgan holda o'z
yurtimiz rivoji uchun biz -
o'quvchilar ham ozmi-ko'pmi
hissa qo'shmoqchimiz. Ta'til
vaqtida qolib ketgan
darslarimizni o'zlashtirib olamiz.

-Siz kabi o'z huquqini
biladigan, tirishqoq va
jonkuyar o'quvchilar
ko'payaversin. Suhbatingiz
uchun rahmat.

Gulyuz VALIYEVA
suhbatlashdi.

Har yili ustoz va murabbiylarimiz bayrami
yaqinlashgani sari zimmamizga katta mas'uliyat
yuklanadi. Qanday mas'uliyat ekan, deysizmi?
Unda eshiting. Maktabimizdagi an'anaga ko'ra,
bayram sabab bir kun ustozlar izzatda, biz xizmatda
bo'lamiz. Ya'ni, ularning o'rniga o'zimiz dars

O'QITUVCHI BO'LAMIZ

o'tamiz va o'qituvchilarimizning mashaqqatli
mehnatlari qadriga yanada ko'proq yetamiz.
Chunki quyi sinf o'quvchilarini tinchlantirib, ularga
turli fanlardan saboq berishning o'zi bo'lmaydi-
da. Hozirgi kichkintoylarimiz ham anoyi emas,
sizni savollarga «ko'mib
tashlashadi». Darsga puxta
hozirlik ko'rgan bo'lsangiz
yaxshiku-ya, bilimingiz sayozroq bo'lsa uyalib
qolishingiz hech gapmas. Shuning uchun ham bu
kunga jiddiy hozirlik ko'ramiz.

Bu yil ham shunday bo'ldi. Aziz ustozlarimiz
o'rini bildirmay, ishonchlarini oqlashga astoydil
harakat qildik. O'qituvchi bo'lmoqlik - ikki bora
o'qimoq ekanligini angladik.

Nodira HOSHIMOVA,

Toshkentdagi 106 - maktabning II - «A» sinf o'quvchisi.



AUDIOMAGNITOFON KIMGA TEGISHLI?

Ona O'zbekistonimiz istiqloq tufayli tobora gullab-
yashnamoqda. Uning porloq ertasi hech shubhasiz
yoshlarimiz qo'lidadir. Kelajak avlodning kamoli
ayvalo maktabda o'tilayotgan har bir darsda, ular uchun
yaratilgan shart-sharoitdadir. Buni chuqur anglagan

Qo'qon shahridagi 39-gimnaziya maktabi
o'qituvchi va o'quvchilari yangi o'quv yilini
ko'tarinki kayfiyatda boshladilar. Ta'lim
maskani rahbari Orifxon aka Ziyovutdinov o'quv
yilining ilk kunlaridan o'z sinflar o'rtasida o'ziga xos
musobaqa uyushtirdilar. Uning shartlari o'quvchilarning
davomati, faqat a'lo va yaxshi baholarga o'qishi, barcha
o'quv jihozlarini sifatli saqlashlaridan iborat.
Musobaqada g'olib bo'lgan sinfga maktab ma'muriyati
tomonidan audiomagnitofon topshiriladi. Endi
o'quvchilarning har biri faqat o'zlarinigina
o'ylamasdan, balki butun sinf uchun jon kuydiradilar.
Shunga aytishadi-da, «Kuch, birlikda», deb.

N.IMOMNAZAROVA,
Qo'qon shahri.

VAQT MAZMUNI

Vaqt borlar - naqdi borlar
havasimdadir.
Vaqtini cho'zmoq ahdi har bir
nafasimdadir.
Menda vaqtdan boshqa hamma
narsa yetarli.
Senda vaqtdan boshqa narsa
Yo'qdir, aytarli...

U. ABDUAZIMOVA.

Aziz bolajonlar! Qadimdan ota-bobolarimiz «Vaqtning ketdi - naqding ketdi» degan hikmatli naqni bejizga aytishmagan. Barchangizning kundalik yumushlaringiz o'zingizga yetarli. Ushbu yumushlar orasida ozgina bo'lsa-da, bo'sh vaqt topildi deguncha, biringiz ko'chada koptok tepishga, kimdir velosipedda mazza qilib sayr qilishga, qizaloqlar esa arqonda kim ko'proq sakrash o'yiniga yugurishadi.

Umuman, vaqtini qanday taqsimlash lozim? Har bir soniyadan unumli foydalanib, fursat topildi deguncha biron bir mashg'ulot bilan shug'ullangan yaxshimi yoki birgalashib qiziqarli o'yinlar tashkil etish lozimmi? Bu borada Alisher Navoiy nomli Nafis san'at litseyining 11-sinf o'quvchilari quyidagicha maslahat berishadi...

Umida TOG'AYEVA,
Samarqand viloyatidan:-
Falon vaqtda u yerga borish kerak, bu yumushni uddalash lozim, deya bosh qotirishning keragi yo'q. Chunki doimo foydali ish bilan mashg'ul bo'lsak, bizda bo'sh vaqtning o'zi bo'lmaydi.

Malika ABDUVOHIDOVA, Toshkent shahridan:- Har kuni o'zingiz uchun reja tuzib oling, masalan: ertalab soat 6⁰⁰ da turaman, 7⁰⁰ gacha choy ichib, kiyinib, so'ngra maktabga boraman. Maktabdan qaytganimdan keyin uy yumushlarini bajarishim lozim. Ishlarimni tugatib, biroz dam olgach, o'zimga yoqadigan to'garak mashg'ulotlariga boraman. To'garakka bormagan kunim o'tilayotgan fanlarim bilan navbatma-navbat shug'ullanaman. Bir kun matematika, yana bir kun ingliz tili... Darslarimni tayyorlab bo'lgach, kitob-daftarlarimni joy-joyiga qo'yib ko'chaga chiqaman. Toza havoda biroz aylanib qaytgach, badiiy kitob o'qiyman. So'ngra uxlayman.



Valijon TURSUNOV, Toshkent viloyatidan:- Hozir zamon boshqacha. Barcha ishlar pul bilan hal bo'lmoqda. Shuning uchun u yerga bor, bu yerga bor, deb ularni majburlay olmaymiz. Menga qolsa ular maktab dasturidagi fanlarni beshga o'zlashtirib, jamoat ishlariga faol qatnashib, yomon illatlardan yiroqda yursalar, oq va qorani ajrata olsalar bo'lgani. Bunday bolajonlar o'z yo'llarini o'zlari topib ketadilar.

Bizning maslahat

Mahliyo MIRZAYEVA,
Jizzax viloyatidan:- Jajji ukajonlarimga, quvnoq singillarimga maslahatim shuki, bo'sh vaqtlarini kutubxonalarda, sport zallarida o'tkazishsa, yangi adabiyotlar bilan tanishishsa, sportning futbol, voleybol, tennis kabi turlari bilan mashg'ul bo'lishsa, vaqtlari bekor o'tmagan bo'lardi.

Sadoqat SODIQOVA va
Nuriddin HAYDAROVlar tayyorlashdi.



Farruh TO'YCHIYEV, Qo'qon shahridan:- Albatta ularning sport bilan shug'ullanishlari, turli klublarga borishlari, internetdan foydalanishlari yaxshi, hattoki a'lo. Qaniydi, hamma shunday bo'lsa. Afsuski, barchamiz turli sharoitda yashaymiz. Balki, ba'zilar bunga moddiy ahvoli yo'l qo'ymas, shuning uchun ular ko'proq uy sharoitidagi aqliy va jismoniy ishlar bilan band bo'lsinlar.

TAHRIRIYATDAN: Aziz o'quvchilar! Tengdoshlaringiz, sevimli ukajonlaringiz va singillaringizga ertamizning munosib vorislari bo'lib yetishishlari uchun nimalarga e'tibor qaratishlari haqidagi fikr va mulohazalaringizni bizga albatta yozib yuboring. Eng yaxshi dil nomalari "Tong yulduzi"da chop etiladi.



Bugun o'qishga otlar ekanman, qalbimni cheksiz hayajon qamrab, quvonchim daryo kabi toshardi. Boisi, sevimli ustozimiz H o s h i m j o n A h m e d o v bizning sinfimizga dars o'tadilar. Asli

Sizga qilamiz ta'zim

Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidan bo'lgan Hoshimjon aka Toshkent Davlat Universitetini (hozirgi O'zMU)ning filologiya fakultetini tugatib, bizning Nafis san'at litseyimizda ish faoliyatini boshlaganlar. Qanchadan-qancha shogirdlarning qalbiga yo'l topa olgan ustoz ayni damda yuzlab shogirdlarning hurmatiga sazovor bo'lmoqda. Ularning har bir o'quvchi bilan xuddi tengdoshi kabi suhbatlashishi, qo'lidan kelganicha beminnat yordam ko'rsatishi, hamisha shogirdlari davrasida bo'lishi chin insoniy fazilatlaridan biridir. Yaqindagina Hoshimjon Ahmedov litseyimiz bo'yicha

“Yilning eng yaxshi ijodkor va mehribon ustoz” degan nomga sazovor bo'lishi barcha o'quvchilar shodligiga shodlik qo'shdi. Ular haqli ravishda bu nomga munosib edilar. O'z ustida tinimsiz ishlab, har bir darsni yangi fikrlar, g'oyalar asosida o'quvchi qalbiga yetkazishga intilayotgan ustozimizning berayotgan saboqlaridan barchamiz juda mamnunmiz.

Ha, yuzu ko'zidan nur yog'ilib, ustoz degan sharaflı nomni sidqidildan oqlayotgan Hoshimjon akaga: «Berayotgan saboqlaringizni oqlaymiz», - deya va'da beramiz! Shogirdlaringiz baxtu saodati mudom hamrohingiz bo'lsin, aziz ustoz!

Nilufar BAHROMOVA,
Nafis san'at litseyining
11-suxandon guruhi o'quvchisi.

Butun yer yuzida terror degan so'z barchani vahimaga solishi tayin. Chunki terror millat, irq, odam tanlamaydi. U bor joyda odamlar o'ladi, bolalar yetim qoladi. Yaqindagina Beslandagi 1-

maktabda bo'lgan voqea, Rossiya samolyotlarining deyarli bir vaqtda portlashi, begunoh kimsalarning qoni to'kilishi shubhasiz TERRORdir. Terrorchilar tomonidan bolalarning garovga olinishi, ularni suvsiz, ovqatsiz qiynash, buning ustiga shiftlarga osilgan bombalarni ularning ko'zlarini oldida portlatib yuborishi, yosh bolalarning orqalaridan avtomatlar bilan o'qqa tutish tosh yuraklarni ham sel qilib, ko'z yoshlariga aylantirgan bo'lsa ajabmas. Beslandagi uylarning ba'zilari o'sha birinchi sentabr kuni qulflangani bo'yicha turganligini, uy egalarning birortasi ham tirik qolmagani haqida televizorda ko'rib, yuragimda qandaydir og'riq paydo bo'ldi. Nahotki, o'sha kimsalarning bolalari, onalari bo'lmasa? Nahotki, terrorchi ayollarning bolalarga rahmi kelmagan bo'lsa? Axir ularning ham ba'zilari Ona edi-ku. Ularning ham Onasi bor emasmi? Ular qayerda, qay sharoitda b u n c h a l a r v a h s h i y l a s h i b

TERROR

MILLAT TANLAMAYDI!

ketishyapti?

Shu o'rinda biz yoshlar, nafaqat yoshlar, balki har bir inson doimo sergak turishi lozim, deb o'ylayman. Barcha hamjihat-u hamfikir bo'lsa hech qanday kuch bizni yenga olmaydi. Keling, aziz yoshlar, yurtimizda doimo tinchlik bo'lishi uchun, begunoh insonlar qonlari to'kilmasligi uchun kurashaylik.

Venera TURDIYEVA,
Parkent tumani, Zarkent qishlog'idagi
15-o'rtta maktabning 10 - sinf o'quvchisi.





O'ZBEK BOFASI

O'zbekning o'ziga bek bolasiman,
O'zgasmas, o'zbekning tik bolasiman,
Matelkni soymas mag'zur bu boshim,
Birdek aziz bog'im ham tog'u boshim.

MUNDARIJA:

O'zbek bolasi.....1
 Vatn.....2
 Fotima-Zuhra.....3
 To'pim.....4
 Qoqio't.....5
 Qovogari.....6
 Qoshiq.....6
 Oilaviy suhbat.....7
 Ukam.....8
 Qora ip.....9
 Topgan-topaloq.....10
 O'ynang.....11
 Qaldirg'ochning qo'shnisi.12
 Aitrgulim.....14
 Boqi.....15
 Opog'dada.....15
 Qo'rquv.....16
 Ko'z-ko'z.....17

30

qirg'ish chizig'i

O'FATTA SUHBAT

Kitobingni buklatni,
Ozoda tut, Gulnora,
Boshqalarga gulkama,
O'z ayingni Dilsona.

Yulig'anga kulmasdan,
Do'ldan tortib turgaz,
Boyib ketsa, bilmasdan,
Yo'ga sohib qo'yi shaxz.

O'rganing bayirini,
Kechirishni o'rganin.
Shirin suhbat qurishni,
O'rganin endi, Malakim.

QORBOBONI KUSGANDA

Estikka ko'z tutqanman,
Qorboboni kutqanman.

Estik taqtaq, Kim keldi?
Jahatibon jim keldi.


Mushtuk keldi miyoqalab,
Kuchuk keldi «vor-voz»lab.

Dary'a qog'illab keldi,
Chumchuq chag'illab keldi.

O'rdak bilan, g'oz keldi,
Do'zichiq shavvoz keldi.

Zag'cha keldi karillab,
Bong'ir keldi sharillab.

91



QO'RQUV
 Tavakkalning tirnog'icha kelmas
 qo'rquv,
 Olg'a bosish yo'llarini bilmas
 qo'rquv.
 Orta esa qayg'ishdan or qilmas
 qo'rquv,
 Kecha-kunduz giryonidir, hech kulmas
 qo'rquv.

15

OPOG'DADA

Bag'ringizda nihol kabi o'smoqlamiz,
 Bog'bonimiz o'zingizsiz, opog'dada.
 Bolalikning to'loqida suzmoqlamiz,
 Ummonimiz o'zingizsiz, opog'dada.
 Ishingizdan odamlarga naf yetadi,
 Xurangiziz tafti bor-da, opog'dada.
 Bugun hamma, hamma sizga gul tutadi,
 Xaxshilarning baxti bor-da opog'dada.

BOQI

Boqi, Boqi,
 Arzulasa gohi,
 Ko'rinib ketadi,
 Tishining oqi.

8



Ukam - mening ovunchog'im,
 Jigarimdir, baland tog'im.
 Qiqir-qiqir kular menga,
 Xaxshiliklar tilar menga.

Fug'ilgach u - yangi mehmon,
 Olam bo'ldi shodu xandon.
 Unga g'am ne, bildirmayman,
 Aslo xafta qildirmayman.

USKAM

23

OCHIEMASIN XASHAGI

Vajohati fidan zo'r,
 Kuchuk chiqdi porazo'r,
 Suyak bergan o'tadi,
 Muradiga yetadi.

Kimki suyak tashlamas,
 Kuchukbina hushlamas,
 Vovillaydi, qopadi,
 Suyakka yo'l topadi.

Mayti urga tegmanglar,
 Dumini ham tugmanglar,
 So'kilmasin to'shagi,
 Ochilmasin xashagi,

Suyakni to'plag'ersin,
 Xurayni to'plag'ersin.
 Bir kun polar tiqilib,
 Xolsi tushar yiqilib.

24

Maqsuda EGAMBERDINOVA

QALDIRG'OCHNING QO'SHINISI



Pashshaxona.....18
 Chumoli.....19
 Bir so'zim bor.....20
 Chivinvoy.....21
 Botirlar.....22
 Ochilmasin xashagi.....23
 Qorboboni kutganda.....24
 Kim bu?.....26
 Chittigul.....27
 Ariqcha.....28
 Kitob.....29
 Savol.....29

"Tong yulduzi" 2004 yil

«KO'Z-KO'Z»

Senga holu bermayman, «ko'z-ko'z»,
 Maza qilib egayman, «ko'z-ko'z».
 Yomboshingda turmayman, «ko'z-ko'z»,
 Qushlar bilan o'ynayman «ko'z-ko'z».

Ko'zlagim yangi, «kalo» «ko'z-ko'z»,
 Senki eski, alam, «ko'z-ko'z»,
 Mening adbin a'lo, «do'st-ko'z»,
 O'lab borini senda ham «do'st-ko'z».

17

ASTIRGULDEM

«Astirgulim qatma-qat
 Ochilganingga rahmat»,
 Dilga joylab muhabbat,
 Sochilganingga rahmat.

Astirgulim, jon gulim,
 Umringga mehmon gulim.
 Senday go'zal yashashga,
 Axtarym inson gulim.

Sabassuning - madorim,
 So'y maosuning - bahorim.
 Senga bog'sam dilimda,
 Qalmagay hech g'uborim.
 Astirgulim qatma-qat.

14

qirg'ish chizig'i

QORA TP

Bir qatim qora tp,
 Dorayib bir qatim,
 Cho'zilib yetadi,
 Nazik go'l tortadi.

Barmag'im silaydi,
 Bortini ulaydi,
 Yirtiqni yutadi,
 Ko'rinnay ketadi.

9


BOSTIRLAR

Sherzad botir
 Bezarotir
 Yegdi patir.

Masi ham,
 Ismi Uhom,
 Patir botir.

Botirlar sho'x-
 Fular chumchuq,
 Etar chumchuq,
 Patir-patir.

22



QOVOQARI

QO'SHIQ

Qovoqari, poch nari,
 Sursan haddan tashqari,
 Bilasanmi tortigin,
 Bu hayotning astari?

QO'SHIQ

Fokchada turgan qoshiq
 Aytmoqda siri qo'shiq.
 Qo'sha-qo'sha qo'rg'onim,
 Uyum-uyum xirmonim,
 Shohiralmay xirmonim.
 Shoshu-pishu arqonim,
 Toki hayot bor ekan,
 Qiziyverar do'konim.

9

Shamol keldi uyllab,
 Butluni keldi qurtlab.

Bulut qillillab keldi,
 Fitcha halqillab keldi.

Bulbutcha sayrab keldi,
 Quyuncha sakrab keldi.
 Eshtika ko'z tutaypman,
 Qorboboni kutaypman.

Toq to'ganda toqatim,
 Zang chalganda soatim.
 Kirit keldi Qorbobo,
 Xattasida qand, halvo.

52

QIYOS

Kitob - tillo xazinasi,
Ma'no sari bir zina,
O'qinasa kim uni,
Aqli qolur ozgina.
Uni hisand qilmaydi,
Maqanchiq xo'rozgina.

SAYOE

Chunchuq tushadi chiroqlab,
Pastqami yo tepqaga?
O'rik qoldi gullab,
Kachami yo ortqaga?



29

VAFIYAN

Baxtim yo'q sensiz, Vatan,
Faxtim yo'q sensiz, Vatan,
Dunyoga yuzdanimogga,
Shaxdim yo'q sensiz, Vatan.
Vatanimdir mustaqil,
Bo'yim o'sar gilmogyl,
Ulm, humar o'rganib,
Bir inson bo'lmay komil.
Dardingga daronon bo'lay,
Ajlida ummon bo'lay,
Mustaqil o'zbek elim,
Baxtingga poston bo'lay.

2

qirgish chizig'i

QOQIQ'S

Qoqo'lar bostida,
Dundumalog sharlari.
Chechaklarning qoshida,
Boqib turar biz sari.
Sharlari suvday tiriq,
Sebrnamati ohista.
Chiroqlar kabi goniq,
Surmati ko'k dengizida.
Shamol kelganda bostib,
Qoqo'i o'sgan boqqa.
Parashyutlarni yozib,
Machib ketar uzogqa.

5

QIM BIL

Saq-taq-taq, taq-taq-taq,
Kim bu?
Men bu? Och, o'rtaq.
O'rtaq bo'lay deb keldim,
Nurga yo'lay deb keldim.
Hortingzilda kachgacha,
O'gnub qoldi deb keldim.
Boq ingilagi gullarni,
Bitta islay deb keldim.
Qo'zchog'ing achorlab,
O'gnub selay deb keldim.
O'rtaq bo'lsam maqsimni,
So'rab bilay, deb keldim.
Saq-taq-taq, taq-taq-taq

26

18

13

10

12

PASHSHAXONA

Pashshaxona - dolxa chodir,
Undan bezor chivin botir,
Ichkariga o'tolmaydi,
Chaqib-chaqib ketolmaydi.
Pashshaxona - berk qo'rig'onim,
Bo'yo mustahkam to'g'onim,
Uldir o'pboq akvarium,
Ichidagi baliq o'zim.

Lekin yurgan inini,
Aslo berib bo'lmaydi.

Kiyib yurgan shimini,
Berib turib bo'lmaydi.
Dumni hamda qanotni,
Bodday shirin hayotni.
Sabassumni, yurakni,
Oziq izzat yurmakni.
Berib bo'lmaydi sira,
Katta qonunga ko'ra.


QOPLAQ

Qopgan - topaloq,
Chopgan - chopaloq,
Xo'pagan - to'g'moq,
Chiqilgan - pazmoq.



QOVLAYIQ

Chaqma meni Chivinvoy,
Fushib qoplar xipchivinvoy,
Chaqay desang tirovni,
Fog'arani chaq-chaq,
Chaqomasang tumovni,
Nog'orani chaq-chaq,
G'injig'ini pilma g'ijig'ing,
Mazladagi ichig'ing,
Chaqma meni Chivinvoy,
Hammanumamuvni jon



ARIQCHA

Ariqcha-yu, ariqcha,
 Oromi yo'q tariqcha,
 Yuguradi, sakraydi,
 Semirmaydi, ariqcha.
 Ariqcha-yu, ariqcha,
 Dam zangir, dam sariqcha,
 Qulashganda men bilan,
 Berkinar goh tirriqcha.
 Ariqcha-yu, ariqcha,
 Ariqtada baliqcha,
 Ariqtadan suv ichib,
 Kishnab qo'ydi to'riqcha.

28

FOTIMANING

Fotimaning ko'zgusi Zuhra,
 Fotima - Zuhraning ko'zgusi,
 Qarab, ko'ngil oladi bahra,
 Aynan o'xshash, yo'qdir o'zgasi.
 Fotimaning ko'zgusi - Zuhra,
 Fotima - Zuhraning ko'zgusi,
 Kim birga yomon so'z aytasa,
 Biri qo'yib, biri uzgusi.

3

FOPIM

fo'pim yumalab ketdi,
 Kunni quvalab ketdi,
 Orqasidan yugursam,
 Yilduz chamalab ketdi.
 Ariqchaga sakradi,
 Xuzimga suv sachradi,
 Sho'x-sho'x to'lqin qo'yindan,
 Zo'rg'ozo'rg'a ajradi.



4


CHIMCHI

Oymomaning kulchasi,
 Atirgunning g'unchasi,
 Hay-yu, chittigul,
 Oymomaning oti bor,
 Atirgunning xati bor,
 Hay-yu, chittigul.
 Oymomaning yorig'i,
 Atirgunning chorig'i,
 Hay-yu, chittigul.

72

CHIMCHI

Chimchim, chimchim,
 Chimchi,
 Chimolin ro'moli,
 Ro'molin popugi,
 Shafolini bir tuki,
 Qarasam,
 Qarasam,
 Qand berasan sakrasam.



19

QADIR OCHNING QO'SHANSI

Qadiri ochning qo'shansi,
 Chumchiq gapga tushunsin.
 Bertsh mumkin xashakni,
 Qo'shniqa don, tushakni.
 Bertsh mumkin haloni,
 Suvni, hatto oloni.
 Ilish-tovoq, qozoni,
 Hatto belbog', chakronni.

12

O'YONCHANG

O'yung <chisig> puchuklar,
 O'yung lavoz juyuklar.
 Ofob o'psin guzingiz,
 Oy o'gnatsin ko'zingiz.
 Yulduzlar pin-pir qilib,
 Omondan boqsin kulib.
 Chug'ur-chug'ur lab qushlar,
 Fyfsin sizga olqushlar.
 Burningiz ham bitnasin,
 Boshingiz oq'rimasin.
 Egamingiz qand bo'lsin!
 Onangiz xursand bo'lsin!

11

BIR SO'ZIM BOR


Bir so'zim bor kurtaklarga,
 Siz ishonib etaklarga,
 Etaklarni tinglayotirib,
 Xarshilikni angdayotirib,
 Bir kun qadriat sezursizda,
 Go'zal gapingiz yozursizda.



20

qirgish chizig'i





-Yoshligimda onam doim: «Dangasalik kishini tanbal qilib qo'yadi», deb uqtirardilar. Keyinchalik tanballik insonni erta qaritib qo'yishini ham bilib oldim. Bu kasallikdan qutulishning birdan-bir chorasi - insondagi iroda ekan,-deydi stol

tennisi bo'yicha jahon chempioni Nodira Burxonxo'jayeve. Uni tahririyatimizga taklif etganimizda

u yaqinda Kiyevda bo'lib o'tgan bolalar va o'smirlar orasidagi "Open-2004" musobaqasidan qaytgan ekan. Hali safar charchog'i chiqmagan, musobaqalardan olgan hayajoni bosilmagan Nodira bilan samimiy suhbatda bo'ldik:

-Kiyev taassurotlarini bizga ham gapirib bering.

-Yaqinda Xitoyning Pekin shahrida o'tgan Yoshlar Jahon chempionatidan 1992 yilda tug'ilgan bolalar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada 3-o'rinni egallagandim. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, yana musobaqalar boshlandi. Biz 20 sentabr kuni Toshkentdan Kiyevga uchdik. Men bilan birga dugonalarim Madina, Jenya ham borgandi. Ertasiga Tailandda jiddiy tayyorgarlik bo'ldi. Biz terma jamoa tarkibida bo'lganligimiz uchun ham musobaqalarga tayyorgarligimiz puxta edi. Natijalarimiz quvonarli ekanligidan xursandmiz.

-Nodira, siz sportchilar oilasida tarbiya topgansiz. Sportning mashaqqati va rohatini yaxshi bilasiz. Aytib-chi, musobaqalardan charchagan paytingizda shu yo'lni tanlaganingizdan afsuslanmaysizmi?

-Yo'q, aksincha, 4 yoshimdanoq sport bilan jiddiy shug'ullangan ekanman. Hozirda esa biror soatimni sportsiz o'tkazgim kelmaydi. Chunki vaqtni ortga qaytarib bo'lmaydi. Darsdan bo'shadim, deguncha 50-o'rta maktabning sport zaliga oshiqaman. U yerda soatlab mashq qilamiz. Maqsadimiz - har bir musobaqani g'alaba bilan yakunlash. Sport mashaqqati shug'ullanmagan insonlar uchun

ORTGA QAYTARIB BO'LMAS

juda qiyin tuyuladi. Ammo men uchun bu odatiy holdir. Xalqaro turnirlardan, nufuzli musobaqalardan oltin medal bilan qaytganimda, butun charchoqlarim unut bo'lib ketadi.

-Nodiraxon, tengdoshlaringizga stol tennising

Nodira BURXONXO'JAYEVA,

1993 yil 9 iyulda Toshkent shahrida, sportchilar oilasida tug'ilgan. Otasi - Saidikrom Burxonxo'jayeve stol tennisi bo'yicha mohir murabbiy. Onasi - Odina opa uy bekasi. Opasi - Saida xalqaro sport ustasi, hozir Italiyadagi «Shiyena Liberds» klubining a'zosi. Shahnoza ham stol tennising umidli yulduzi. Nodira to'rt yoshidan boshlab tennis bilan shug'ullanib keladi, 7 yoshidan musobaqalarga qatnashgan. U O'zbekiston Milliy terma jamoasining a'zosi. Nodiraning hozirgacha to'plagan oltin va bronza medallari soni anchagina bo'lib qoldi. Yosh bo'lsa-da, bir necha xalqaro nufuzli turnirlar qatnashchisi bo'lishga ulgurgan tennischimiz hozirda shahrimizning Shayxontohur tumanidagi 19- maktabning 5-sinfida tahsil olyapti. Nafaqat sport sohasida, bilim olish bobida ham ko'plab tengdoshlariga o'rnak.


foydali tomonlari haqida ham gapirib bering.

-Amerikalik olimlarning ko'p yillik kuzatishlari natijasida shu narsa aniq bo'lgan ekanki, stol tennisi va badminton sport turi nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun ham koni foyda ekan. Birinchidan, stol tennisdagi tezkorlik, zarbalarni qaytarishdagi epchillik kabi hislatlar bizni irodali bo'lishga undaydi. Stol tennising

qoldirilgan darsni o'zlashtirib olishga intilaman. Matematika, adabiyot, rasm darslarini yaxshi ko'raman.

-Eng ezgu orzuingiz nima?

-Oktabr oyining oxirlarida biz yana Farg'onada bo'lib o'tadigan bolalar va o'smirlar o'rtasidagi stol tennisi bo'yicha O'zbekiston chempionatiga boramiz. Hozirgi tayyorgarlik mashg'ulotlari shunga qaratilgan. So'ng, yana bizni xorij safari kutmoqda. 2005 yilda o'tadigan Yoshlar Jahon chempionatiga tayyorgarlikni boshlab yuborganmiz. Orzuim - xuddi opamdek yurtimiz sharafini himoya qilish va stol tennisidan yuqori natijalarga erishish.



Yurtimizda allaqachon ommalashib ulgurgan karate sport turi bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalar salmog'i kun sayin ortib bormoqda.

Kuni kecha poytaxtimizning "Jar" sport sog'lomlashtirish majmuasida sportning ana shu turi bo'yicha bolalar va o'smirlar o'rtasida O'zbekiston kubogining musobaqalari yakunlandi.

TATAMIDA - BO'LALAK YULDUZLAR

Ushbu musobaqa O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, O'zbekiston Karate Milliy Federatsiyasi hamda "Toshkent oqshomi" gazetasi tomonidan tashkillashtirildi.

Musobaqani endigina tatamiga chiqqan yosh karatechilar orziqib kutdilar.

Nihoyat, ular intiq kutgan hayajonli kunlar yetib keldi. Musobaqa bo'lgandan keyin uning mag'lublari va

g'oliblari bo'lishi tayin. Biz ana shu musobaqa ishtirokchilarining ayrimlari bilan samimiy suhbatda bo'ldik.

O'zini Xurshid Shahobiddinov deb tanishtirgan andijonlik karatechi do'stingizning musobaqa xususidagi fikrlariga quloq solaylik-chi:

-Men Andijon shahridagi "Ahmadshoh" karate klubi a'zosiman. Karatening karate-do turida muntazam shug'ullanaman. Murabbiyim 3-Dan qora belbog' sohibi Husanboy Jabborovdan karate saboqlarini olib kelayotganimga ham 7 yildan oshdi. Poytaxtda o'tadigan musobaqalarda bu yil o'ninchi marta qatnashishim. Bugungi kubok musobaqalaridagi raqiblarim Toshkentdan, Samarqanddan, Jizzaxdan bo'ldi. Ularni 2:0, 5:0, 5:2 hisobida yutdim. Finaldagi raqibimning ancha kuchli ekanligini tan olaman. Ammo hakamlar adolatli bo'lishdi. Men do'stlarim va ota-onam oldiga

uchinchi o'rin sohibi bo'lib qaytayotganimdan mamnunman. Musobaqalar davomida Osiyo chempioni, Osiyo o'yinlari sovrindori Otabek Qosimov, Osiyo Chempionati va Osiyo o'yinlarining bronza medali sovrindori Ilhom Karimov hamda O'zbekistonning bir necha bor chempioni, ko'plab xalqaro turnirlar g'olibi Ikrom Karimov, Pak Aleksandr

va Sherzod Qodirovlarning chiqishlarini kuzatish imkoniga ega bo'ldim, mahoratlarini o'rgandim...

Xorazm viloyatining Xiva tumanidan kelgan

D o n i y o r j o n Maqsudov Xiva shahridagi sport maktabida karatening shotakan turi bilan bir yildan buyon shug'ullanib keladi. Ustozi 2-Dan qora belbog' sohibi Hamza O t a j o n o v d a n karatening o'ziga xos uslublari ni o' r g a n y a p t i .

Xorazmlik tengdoshingiz bu musobaqalarda finalgacha yetib bordi. Ammo finalda mag'lubiyatga uchradi. Sababi, o'ziga bo'lgan ishonchi pand berdi, raqibiga qarshi hujumga o'tganda ochko oldirib qo'ydi.

-«O'zbekiston kubogi - 2004» musobaqalarida qatnashgan har bir ishtirokchi va murabbiylar olam-olam taassurot bilan qaytdilar. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Karate Milliy Federatsiyasi Prezidenti, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi", 6-Dan qora belbog' sohibi Nurxon Nafasovning musobaqaning tantanali ochilish marosimida uning ishtirokchilariga bildirgan ezgu niyatlari sportimizning chin ma'nodagi yulduzlarini zafarli odimlar sari boshlaganday bo'ldi. Musobaqa degani g'alaba va mag'lubiyatga chidash deganidir. Uch kun davom etgan musobaqalarni kuzatar ekanmiz, oramizda bo'lajak yulduzlar - Jahon chempionlari albatta yetishib chiqishiga yana bir bor amin bo'ldik.

O'zbekiston kubogi - 2004

«PAXTAKOR» DA OCHIQ CHEMPIONAT

Kuni kecha "Paxtakor" markaziy stadionida yengil atletika bo'yicha mustaqilligimizning 13 yilligi hamda "Mehr va muruvvat yili"ga bag'ishlangan yarim marafon (21 km. 97,5 m.) o'tkazildi. Marafon musobaqasiga Toshkent shahar sport qo'mitasi, Yengil atletika federatsiyasi va «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy Harakati homiylik qildilar.

Albatta bu musobaqa avvalgilaridan ham yuqoriroq darajada o'tkazildi. Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan yosh yengil atletikachilarning mahorati tahsinga sazovor bo'ldi. Jumladan, mutloq birinchilikda 14 yoshli farg'onalik Dinara Madaminova va qirg'izistonlik Yuliya Arxipovalar yuqori o'rinlarni egallab, qimmatbaho sovrinlarga ega bo'ldilar. O'g'il bolalar o'rtasida esa toshkentlik Vasilij Medvedev chempionlik shoxsupasini egalladi. Shuningdek, qashqadaryolik maktab o'quvchilaridan Rayhon Xo'jaeva, Islom Hamdamov va andijonlik Sardor Abduxolliqov ham ochiq chempionatning g'oliblari safidan joy oldilar.



Sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi.

Aziz bolalar!

Ona Vatanimiz adabiyotida biz bilan yonma-yon yashayotgan, ayni damda hammamiz uchun faol ijod qilayotgan yozuvchi, shoirlarimiz ko'p. Lekin ular orasida ustoz maqomiga ko'tarilgan adiplar sanoqlidir.

Ana shunday ustoz shoirlardan biri - Aleksandr Faynberg. U Toshkentda tug'ilgan. Do'stlari uni yaqin olib Sasha deyishadi. Sasha aka katta shoir bo'lishiga qaramasdan, juda ham kamtarin inson. Ayniqsa, bolalarni juda ham yaxshi ko'radi. Chunki u yigirmaga yaqin multfilmlar senariysini yaratgan va bolalarga ekran orqali tuhfa etgan.

Bilasizlarmi, yaqindagina butun mamlakatimiz bo'ylab namoyish etilgan «Dev bilan pakana» kinokomedyasining senariy mualliflaridan biri Aleksandr Faynbergdir.

Ko'rdingizmi, Aleksandr Faynberg Sizga qadrdon bobo bo'ladi. U rus tilida ijod qiladi. Juda ko'plab o'zbek shoirlari asarlarini rus tiliga tarjima qilgan. O'zining ham o'ndan ortiq she'riy kitoblari nashr etilgan. O'zbekcha gazeta-jurnallarda she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilib chop etilgan. Bu yil Aleksandr Faynberg milliy adabiyotimiz va madaniyatimizni rivojlantirishdagi fidoyi xizmatlari uchun «O'zbekiston Respublikasi Xalq shoiri» unvoni bilan mukofotlandi. Biz shoir bobongizni by unvon bilan qutlab, e'tiboringizga sizga bag'ishlab yozgan she'rlarini havola etamiz.

Rustam MUSURMON.

Suratda: O'zbekiston Respublikasi Xalq shoiri Aleksandr Faynberg shoir va tarjimon Rustam Musurmon bilan.



Aleksandr FAYNBERG

Pastdan qirga, qirdan pastga
yo'l yursam, tolmas oyoq.
Bir - kartoshka, ikki - kartoshka,
Uchinchi marta - pirog.

O'rga chiqsang, o'q ota,
baxt bo'lgay uch bor ato.
Bir o'q - xato, ikki o'q - xato,
Uchinchi o'q - bezato.

Bir, ikki - puch bo'lsa,
uching bordir, kam dema.
Gar uching ham puch bo'lsa,
Xana to'rt bor, g'am yema.

Besh bor, o'n bor, yuz... yiqilsang,
o'rningdan tur - hayotsan.
Noldan boshlab sanay bilsang,
Sen mangu barhayotsan.

KECHA

To'lin oy falakda yonayotgan g'o'la,
Masjiddar gumbazi osmonga bo'la.
Asal hid taratgan jo'ka shohida,
bedana sayrog'i tinmas g'ulg'ula.

Baqovvat chinorning soyasidagi,
kimsasiz choyxona ochiq bemaol.
Samovar yonida damini olib,
chalqancha yotibdi choyxonachi chol.

Qudug tepasida ko'lanka tashlab,
Egilib turibdi tol navdalari.
Yaproqlar ostidan ochiq ko'ziga,
Oqib tushayotir oy shu'lalari.

Huv, otis daricha ortida esa,
musiq chaladi yarim tun tori.
Asal islarini taratar jo'ka,
tinmaydi sayroqi bedana zori.

TONG DA JUN

Archazortlar aro daydiydi shu'la,
Qoyalar daryoga o'zin tashlaydi.
Osmon - tikka boqar yolg'iz qarako'z,
Qorachig'i ichra hilol yashaydi.

Qabristonga bordim, qish-bahor emas,
yuragimga esdi mezon shamoli.
Osmondan yog'ayotgan oppoq qor emas,
onamning bor-yo'g'i bitla ro'moli.

Fug'ilgan kun edi, to'ldi faymonam,
noyabr ko'zida daryoni ko'rdim.
Noyabr dunyoga kelgandi onam,
Noyabrda, evoh, dunyoni ko'rdim...

YAPONIYA

Tong iyeroglif men uchun,
Muhabbatim ufqda samoviy.
Sening nafis shamsiyang nechun,
Osmon kabi yashnaydi moviy?

Nechun orol o'lkang ustida
Chag'illab charx urar chag'alay?
Nechun ikki yelkang ustidan
Ko'kka chiqar ikki hilol oy?

Balki olam zar uqasiga
Olmos toshni tikkanidir bu?
Okean va tong yoqasidan
Quyosh boshing chiqqanidir bu?

Balki bu yurt ramzidir shunday:
Felba botir tushmagan asir-
Ko'targandir qaysar samuray,
Bashar uzra otash va shamshir?.

...Sarv kuylaydi shamsiya uzra,
Foki Boku kitobin sevib,
O'qigani singari yapon
Okeanning to'lqinlarini
Varaqlaydi bu ko'hna makon.

O'QUVCHI BO'LIB QOLDIM

«Alifbe»ni o'rgatgan,
Qo'limga qalam tutgan.
Mehridaryo ustozim,
Qalbidaryo ustozim.

Maktabdan mehr oldim,
Bilim degan nur oldim.
Endi yosh bolamasman,
O'quvchi bo'lib qoldim.

Men o'rgandim necha harf,
Xat yozishga qildim sarf.
Qancha o'qib o'rgansam,
Bu o'zimga foyda, naf.

Qalbingiz quyosh bo'lsin,
Sizga baxt yo'ldosh bo'lsin,
Har bitla o'quvchingiz,
Sizga ko'zu qosh bo'lsin.

Bolangizman, onajon,
Yuragimda hayajon,
Bayram bilan tabriklar,
Sizni jajji Yusufjon...

Yusufjon RAVSHANOV,

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi
140-o'rtta maktabning 1-«V» sinf o'quvchisi.









Bu she'rni o'qib,
ustozingiz yodingizga
tushdimi?

Bilasizmi, bu satrlar bu yil
1-sinfga qadam qo'ygan
bolakayning yuragidan sizib
chiqqan. U ilk ustoz Lola
opa Rahimovaga ushbu
she'rini bag'ishlabdi. Shu
paytga qadar u harf va
so'zlar o'rganish bilan birga
kichik she'rlar ham mashq
qilib turarkan.

MAKTABIM

Jumadulla NAZAROV musiqasi
Umida ABDUAZIMOVA she'ri.

Allegretto



Fashnadirman ilmga,
Yuraman seni maqtab,
Nur to'shading yo'limga,
Qadrilon ona maktab!

Metring bilan yosh yurak
To'lib-toshdi limmotim.
Bo'lib bilimdon ziyarak
Yulduzga yetdi qo'lim.

Kitobingning har sabrin
O'qirkanman, did cho'g'dir!
Degayman, bilimdan zo'r,
Quadratti qurol yo'qdir.

UMIDA.

O'z yurtini - o'lin behtigini
TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida
ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Shuhrat AHMEDOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida

N: 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi.

Gazeta
«O'zbekiston»
nashriyat-matbaa
ijodiy uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi va
chop etildi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 11770
Buyurtma N: J599

Dizayn va sahifalovchi:

Otabek
ESHCHANOV.

Navbatchi:
Gulyuz VALIYEVA.

Manzilimiz:

700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.
Obuna indeksi: 198

e-mail:
tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38
144-38-10
Tel./ faks:
(99871) 144-24-45